



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 2

2026

OLIV TA'LIMDA ONA TILI MAZMUNINI TANLASH VA TIZIMLASHTIRISH MASALALARI

Dustmurodov G'iyos Xusan o'g'li

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, PhD, dots v.b

Annotatsiya

Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida ona tili fanining mazmunini tanlash va tizimlashtirish bilan bog'liq masalalar ilmiy-metodik jihatdan tahlil qilinadi. Ona tili ta'limi mazmunini belgilashda kompetensiyaviy yondashuv, talabalarining kasbiy ehtiyojlari hamda zamonaviy tilshunoslik yutuqlariga tayanish zarurligi asoslab beriladi. Shuningdek, mazmunni tizimlashtirishda uzviylik, izchillik va amaliy yo'naltirilganlik tamoyillarining ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, ona tili, ta'lim mazmuni, kompetensiyaviy yondashuv, tizimlashtirish, metodika.

ВЫБОР И СИСТЕМАТИЗАЦИЯ СОДЕРЖАНИЯ РОДНОГО ЯЗЫКА В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

Дустмуродов Гиёс Хусан угли

Университет экономики и педагогики, PhD, и.о.доцент

Аннотация

В данной статье научно-методически анализируются вопросы выбора и систематизации содержания предмета «родной язык» в высших учебных заведениях. Обосновывается необходимость опираться при определении содержания обучения родному языку на компетентностный подход, профессиональные потребности студентов и достижения современной лингвистики. Кроме того, подчеркивается важность принципов последовательности, целостности и практической направленности при систематизации содержания.

Ключевые слова: высшее образование, родной язык, содержание обучения, компетентностный подход, систематизация, методика.

SELECTION AND SYSTEMATIZATION OF THE CONTENT OF THE NATIVE LANGUAGE IN HIGHER EDUCATION

Dustmurodov G'iyos Xusan o'g'li

University of Economics and Pedagogy, PhD, Acting Associate Professor

Abstract

This article provides a scientific and methodological analysis of the issues related to selecting and systematizing the content of the native language course in higher education institutions. It substantiates the need to base the determination of the content on a competency-based approach, students' professional needs, and the achievements of modern linguistics. Furthermore, the importance of the principles of continuity, consistency, and practical orientation in content systematization is highlighted.

Keywords: higher education, native language, educational content, competency-based approach, systematization, methodology.

Bugungi globallashuv sharoitida oliy ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan asosiy vazifalardan biri – raqobatbardosh, mustaqil fikrlaydigan, kasbiy va kommunikativ jihatdan yetuk mutaxassislarni tayyorlashdan iboratdir. Bu jarayonda ona tili ta'limining o'rni beqiyos bo'lib, u talabalarning nutq madaniyati, tafakkur aniqligi, ilmiy va kasbiy muloqot kompetensiyalarini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Shu bois oliy ta'limda ona tili fanining mazmunini to'g'ri tanlash va ilmiy-pedagogik asosda tizimlashtirish dolzarb masalalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Oliy ta'lim muassasalarida ona tili fanining mazmuni nafaqat tilshunoslikning nazariy masalalarini, balki amaliy nutq faoliyatini, kasbiy yo'naltirilgan kommunikatsiyani ham qamrab olishi lozim. Mazmun tanlashda fanlararo integratsiya, kompetensiyaviy yondashuv, talabalarning kelajakdagi kasbiy ehtiyojlari hamda zamonaviy lingvodidaktik talablarga tayanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, o'quv material mantiqiy izchillikda, soddadan murakkabga tamoyili asosida tizimlashtirilishi ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Oliy ta'limda ona tili ta'limi mazmunini tizimlashtirish masalasi didaktika va til ta'limi metodikasining muhim ilmiy muammolaridan biri hisoblanadi. Ta'lim mazmunining tizimliliigi ta'lim jarayonining ilmiy asoslanganligi, izchilligi hamda samaradorligini ta'minlovchi yetakchi omil sifatida talqin etiladi. Pedagog olimlar ta'kidlashicha, tizimlashtirilmagan bilimlar talabalarda fragmentar tasavvurlarni shakllantiradi, bu esa ularning amaliy faoliyatida bilimlardan samarali foydalanishiga to'sqinlik qiladi [2,176]. Didaktik nazariyada ta'lim mazmunini tizimlashtirish soddadan murakkabga, umumiydan xususiyga va mavhumdan konkretga tamoyillari asosida amalga oshirilishi zarurligi asoslab berilgan [3,128]. Ushbu tamoyillar ona tili ta'limida ham muhim metodologik ahamiyat kasb etadi. Xususan, til birliklari va ularning funksional xususiyatlari dastlab umumiy nazariy tushunchalar darajasida o'rganilib, keyinchalik murakkab sintaktik, stilistik va pragmatik hodisalar tahliliga o'tilishi talabalarning lingvistik tafakkurini izchil rivojlantirishga xizmat qiladi.

Til ta'limi metodikasiga oid tadqiqotlarda ona tili mazmunini tizimlashtirishda nazariy va amaliy komponentlarning uzviy birligi asosiy talab sifatida e'tirof etiladi [4,240]. Nazariy bilimlarning amaliy nutq faoliyati bilan bog'lanmagan holda berilishi til ta'limining kommunikativ mohiyatini susaytiradi. Shu bois nazariy tushunchalar amaliy mashqlar, nutqiy vaziyatlar va matn tahlili orqali mustahkamlanishi lozim. Bu yondashuv kompetensiyaviy ta'lim paradigmasiga mos kelib, talabalarda kommunikativ va kasbiy nutq kompetensiyalarining shakllanishiga xizmat qiladi.

Mazmunni tizimlashtirish jarayonida mavzulararo uzviylik va didaktik takroriylik masalasi ham alohida metodik ahamiyatga ega. Psixolog-pedagog olimlar bilimlarning mustahkamligi ularning turli kontekstlarda qayta qo'llanilishi va umumlashtirilishi bilan bog'liq ekanligini ta'kidlaydilar [7,112]. Ona tili ta'limida takrorlash mexanik xarakterda emas, balki mazmuniy jihatdan chuqurlashtirilgan va tahliliy yo'sinda tashkil etilishi zarur. Bu esa talabalarning bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirishiga va ularni nutqiy faoliyatda erkin qo'llashiga imkon yaratadi. Shuningdek, zamonaviy ta'lim konsepsiyalarida ona tili mazmunini tizimlashtirishda fanlararo integratsiya tamoyiliga alohida urg'u beriladi.

Tilning tafakkur va ijtimoiy faoliyat bilan uzviy bog'liqligi ona tili fanini boshqa ijtimoiy-gumanitar hamda mutaxassislik fanlari bilan integratsiyalashgan holda o'qitishni taqozo etadi [8,416]. Bunday integrativ yondashuv talabalarning ilmiy uslubdagi nutqini rivojlantirish, kasbiy terminologiyani egallash va muloqot madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan ona tili mazmunini tizimlashtirish uchun amaliyotda qo'llash mumkin bo'lgan, ilmiy asoslangan aniq mexanizm ishlab chiqish lozim

bo'ladi. Biz quyida 2 mexanizm tavsiya etamiz:

Mazkur mexanizm ona tili ta'limi mazmunini kompetensiyalar asosida modullarga ajratish orqali tizimlashtirishga asoslanadi. Bunda o'quv materiali an'anaviy grammatik bo'limlar asosida emas, balki talabalarda shakllantirilishi lozim bo'lgan kompetensiyalar doirasida tashkil etiladi.

1-jadval

Bosqich	Mazmuni	Metodik yo'nalish	Kutiladigan natija
1-bosqich	Ona tili fanida shakllantiriladigan kompetensiyalarni aniqlash	Kompetensiyaviy yondashuv	Lingvistik, kommunikativ va kasbiy kompetensiyalar tizimi belgilanadi.
2-bosqich	Kompetensiyalar asosida o'quv modullarini ishlab chiqish	Modulli ta'lim	O'quv materiali mantiqan yaxlit modullarga ajratiladi.
3-bosqich	Modul tarkibida nazariy va amaliy materiallarni integratsiyalash	Nazariya – amaliyot birligi	Bilimlarning amaliy nutq faoliyatida qo'llanishi ta'minlanadi.
4-bosqich	Modul yakunida kompetensiyaviy baholashni amalga oshirish	Mezonga asoslangan baholash	Talabalarda shakllangan kompetensiyalar darajasi aniqlanadi.

Spiralsimon (bosqichma-bosqich chuqurlashtiruvchi) tizimlashtirish mexanizmi. Spiralsimon tizimlashtirish mexanizmi ta'lim mazmunini takroriylik va chuqurlashtirish tamoyili asosida tashkil etishga qaratilgan. Bunda muhim lingvistik tushunchalar ta'lim jarayonining turli bosqichlarida qayta yoritiladi, biroq har bir bosqichda ularning mazmuni murakkablashib boradi.

2-jadval

Bosqich	O'rganiladigan mazmun	Metodik vazifa	Ta'limiy samara
1-bosqich	Asosiy til tushunchalari	Dastlabki bilimlarni shakllantirish	Tayanch bilimlar hosil bo'ladi.
2-bosqich	Lingvistik birliklar tizimi	Bilimlarni kengaytirish	Nazariy tayyorgarlik mustahkamlanadi.
3-bosqich	Nutq turlari va uslublar	Amaliy qo'llash	Kommunikativ ko'nikmalar rivojlanadi.

4-bosqich	Matn va diskurs tahlili	Tahliliy fikrlash	Ilmiy nutq malakalari shakllanadi.
5-bosqich	Kasbiy nutq faoliyati	Integratsiyalash	Kasbiy kommunikativ kompetensiya rivojlanadi.

Mazkur tadqiqot natijasida oliy ta'limda ona tili fanini mazmunini tanlash va tizimlashtirish sohasida quyidagi ilmiy va amaliy natijalarga erishish mumkin:

Ona tili mazmunini tanlash mezonlarini aniqlash

1. Talabalarning kasbiy va kommunikativ ehtiyojlariga mos keladigan mavzularni tanlash mezonlari ishlab chiqiladi;

2. Nazariya va amaliyot uyg'unligi hamda zamonaviy tilshunoslik yutuqlariga asoslangan metodik tavsiyalar shakllantiriladi.

Ta'lim mazmunini tizimlashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish

1. Kompetensiyaviy-modulli va spiralsimon tizimlashtirish mexanizmlari amaliyotga joriy qilinadi;

2. Mazmun soddadan murakkabga, umumiydan xususiyga va nazariyadan amaliyotga bosqichma-bosqich yetkaziladi.

Talabalarda bilim va ko'nikmalarni izchil rivojlantirish imkoniyatini yaratish

1. Nazariy tushunchalar va amaliy mashg'ulotlarning uzviy bog'lanishi orqali talabalarning nutqiy va lingvistik kompetensiyalari mustahkamlanadi;

2. Mavzulararo uzviylik va takroriylik mexanizmi bilimlarni barqaror va ongli o'zlashtirishni ta'minlaydi.

Ilmiy-metodik va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish

1. Oliy ta'lim muassasalarida ona tili fanini o'qitish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi tavsiyalar va metodik vositalar tayyorlanadi;

2. Ta'lim dasturlari, o'quv modullari va mashg'ulotlar mazmunini tizimli shakllantirish bo'yicha aniq amaliy ko'rsatmalar beriladi.

Umuman olganda, ushbu tadqiqot natijalari oliy ta'limda ona tili fanining nazariy, metodik va amaliy samaradorligini oshirishga, shuningdek, talabalarda barqaror lingvistik bilimlar va nutqiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu tadqiqot oliy ta'limda ona tili fanini mazmunini tanlash va tizimlashtirish masalalarini ilmiy-metodik jihatdan o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ona tili mazmunini tizimlashtirish jarayoni talabalarning lingvistik va nutqiy kompetensiyalarini barqaror shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Kompetensiyaviy-modulli tizimlashtirish mexanizmi talabalarda lingvistik, kommunikativ va kasbiy kompetensiyalarni bosqichma-bosqich shakllantirishga xizmat qilsa, spiralsimon tizimlashtirish mexanizmi mavzularni soddadan murakkabga va nazariyadan amaliyotga uzviy bog'langan tarzda yetkazish imkonini beradi. Ushbu mexanizmlar nazariy bilimlar va amaliy mashg'ulotlarning uzviy birligini, mavzulararo uzviylik va takroriylikni hamda fanlararo integratsiyani ta'minlaydi.

Tadqiqotning amaliy natijalari sifatida oliy ta'lim muassasalarida ona tili fanini o'qitish jarayonida quyidagilarni amalga oshirish mumkin:

- ta'lim mazmunini kompetensiyalar va modullar asosida tizimli shakllantirish;
- mavzularni spiralsimon tarzda bosqichma-bosqich chuqurlashtirish;

- talabalarda bilimlarni barqaror va ongli o'zlashtirishga erishish;
- kasbiy va ilmiy nutq kompetensiyasini rivojlantirish.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta'limda ona tili mazmunini tanlash va tizimlashtirishning ilmiy-metodik yondashuvlari talabalarning lingvistik va nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish, fan samaradorligini oshirish va kasbiy faoliyatda ona tilidan samarali foydalanish malakasini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu tadqiqot natijalari pedagogik amaliyotga joriy qilinishi, shuningdek, ta'lim dasturlari va metodik vositalarni takomillashtirish uchun ilmiy asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Babanskiy Yu.K. O'qitish jarayonini optimallashtirish nazariyasi. – Moskva: Pedagogika, 1982. – 192 b.
2. Krayevskiy V.V. Ta'lim mazmuni: didaktik tahlil asoslari. – Moskva: Pedagogika, 1983. – 176 b.
3. Lerner I.Ya. Ta'lim mazmunining didaktik asoslari. – Moskva: Pedagogika, 1981. – 128 b.
4. Shanskiy N.M. Rus tilini o'qitish metodikasi. – Moskva: Prosveshcheniye, 1984. – 240 b.
5. Leontev A.A. Nutq faoliyati asoslari. – Moskva: Nauka, 1974. – 368 b.
6. Vygotskiy L.S. Tafakkur va nutq. – Moskva: Labirint, 1999. – 352 b.
7. Galperin P.Ya. Aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasi. – Moskva: MGU, 1985. – 112 b.
8. Sayfullayeva R., Mengliyev B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010. – 416 b.
9. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2004. – 184 b.
10. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli lug'ati va tilshunoslik masalalari. – Toshkent: Fan, 2009. – 320 b.
11. Karimov U. Oliy ta'limda kompetensiyaviy yondashuv asoslari. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti, 2020. – 156 b.